

## MAHALLIY BYUDJET XARAJATLARI KASSA IJROSI HISOBINING TASHKILIIY-IQTISODIY TIZIM TAHLILI

**Maksudov Suxrob Alisherovich**

*Extirom plyus mikromoliya tashkiloti Izboskan filiali boshkaruvchisi*

**Annotatsiya:** *Mahalliy byudjetning kassa ijrosi tizimini joriy etish byudjetni daromadlar tushumlarining to'liq va o'z vaqtida tushishini va xarajatlar qismida byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi va pul oqimlarini samarali boshqarish imkoniyatini beradi. Mazkur tizim bundan tashqari moliya resurslari boshqaruv qarorlarini qabul qilish, byudjet mablag'larini maqsadsiz sarflanishdan himoyalash va byudjet tuzishni takomillashtirish va prognozlashtirish sifatini oshiradi. Davlat byudjeti ijrosining bank tizimida esa asosiy qatnashchilar soliq to'lovchilar, banklar, soliq organlari, markaziy bank va Moliya vazirligi bo'ladi.*

Davlat byudjetining g'azna ijrosida byudjet mablag'larini kutishga hojat qolmay, yagona g'azna hisobvarag'iga daromadlar shaklida mablag'larning tushishi mazkur hududdagi byudjet xarajatlarini operativ moliyalashtirish uchun barqaror bazani tashkil qiladi.

Bunday sharoitda quyidagi ko'rsatkichlarni aniq nazorat qilish imkoniyati paydo bo'ladi va davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimi quyidagilarga erishish imkonini beradi: ularning maqsadli yo'naltirilganligi, o'z vaqtidaligi va sarflashning to'g'riligini ta'minlashda byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish; ichki qarzga xizmat ko'rsatish qiymatini pasaytirish, byudjet mablag'lari aylanuvchanligini tezlashtirish.

O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi barcha darajalarining byudjetlari yuqorida keltirganimizdek kassaning yagonaligi tamoyili (O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi. 26.12.2013. T.: "Adolat", 2014) asosida ijro etiladi, u barcha kelib tushuvchi daromadlar va tushumlarning byudjet taqchilligini moliyalash manbalaridan Yagona g'azna hisobvarag'iga o'tkazilishini, barcha ko'zda tutilgan xarajatlarning yagona g'azna hisobvarag'idan amalga oshirilishini nazarda tutadi.

Byudjet operatsiyalarini Yagona g'azna hisobvarag'i orqali amalga oshirish byudjet ijrosining har bir bosqichini to'liq hisobga olish va nazorat qilish imkonini beradi.

Bunda g'aznachilik yagona hisobvarag'idan Davlat byudjetidan mablag' oluvchilarning xarajatlarini to'lash, to'lov jarayonini nazorat qilibgina qolmay, balki byudjet mablag'laridan samarali foydalanishga zamin yaratadi.

Byudjetni ijro etish uchun G'aznachilikda byudjetlar, daromadlarning har bir manbasi bo'yicha, har bir byudjet mablag'lari bosh taqsimlovchisi, taqsimlovchisi va oluvchisi uchun shaxsiy hisobvaraqlar ochiladi. G'aznachilik byudjetga byudjet taqchilligini moliyalashtirish manbalaridan daromadlar va tushumlarning kelib tushishi, shuningdek, byudjet xarajatlariga ruxsat berish va ularni to'lash bilan bog'liq barcha operatsiyalarni G'aznachilikning Bosh kitobida ro'yxatga oladi va byudjetdan mablag' oluvchilarning yig'ma reyestrini (ro'yxatini) yuritadi.

Byudjetning kassa ijrosi kassani rejalashtirish, ya'ni G'aznachilik tomonidan daromadlar va xarajatlar bo'yicha reja, shuningdek, mablag' jalb qilish rejasining tuzilishidan va byudjet mablag'larini boshqarishdan boshlanadi. Daromadlar bo'yicha kassa rejasi daromadlarning

tasdiqlangan prognoz ko'rsatkichlari, amaldagi tushumlar va o'tgan davr ma'lumotlari asosida tuziladi. Xarajatlar bo'yicha kassa rejasi xarajatlar smetasi asosida, shuningdek, byudjetdan mablag' oluvchilar xarajatlarining buyurtmasi bo'yicha tuziladi. Byudjetning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi vaqtinchalik uzilishlarni qoplash uchun mablag' jalb qilish rejasi tuziladi. Uzilishni qoplash uchun kreditlar jalb qilinadi va qisqa muddatli davlat obligatsiyalari chiqariladi.

Daromadlar bo'yicha byudjetning g'azna ijrosi quyidagi operatsiyalar bo'yicha amalga oshiriladi:

a) Byudjet daromadlar tushumlarini manbalar bo'yicha byudjetning yagona hisobvarag'iga o'tkazish va kiritish;

b) Tasdiqlangan byudjetga muvofiq tegishli byudjetlarning turli darajalari bo'yicha umumdavlat tartibga soluvchi soliqlarini taqsimlash;

v) Daromadlarning ortiqcha to'langan summalarini qaytarish;

g) Davlat byudjetining daromadlari hisobini yuritish va byudjet tasnifiga muvofiq hisobotlarni tuzish. Barcha operatsiyalar byudjet mablag'larining hisobini yuritish bo'yicha shaxsiy hisobvaraqlarda, davlat maqsadli jamg'armalari shaxsiy hisobvaraqlarida qayd etiladi hamda soliq to'lovchilarga ortiqcha to'langan yoki ortiqcha undirilgan soliqlar va yig'imlar byudjetlarning shaxsiy hisobvaraqlaridagi mablag'lar qoldig'i doirasida qaytariladi.

Xarajatlar bo'yicha byudjetlar g'azna ijrosi byudjet sohasidagi huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari, ya'ni byudjet mablag'lari bosh taqsimlovchisi, byudjet mablag'lari taqsimlovchilari, byudjet mablag'lari oluvchilari tomonidan Yagona g'azna hisobvarag'idagi mavjud byudjet mablag'lari doirasida amalga oshiriladi va quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

- xarajatlar smetalarini, byudjetdan tashqari daromadlar va xarajatlar bo'yicha smetalarini tuzish;

- xarajatlarni tasdiqlash va ularni to'lash uchun xarajatlarni to'lash ruxsatnomasini byudjet mablag'lari taqsimlovchilarga va oluvchilarga yetkazish;

- byudjetdan mablag'lar oluvchilar tomonidan huquqiy majburiyatlarning qabul qilinishi va g'aznachilikda ro'yxatdan o'tkazilishi;

- moliyaviy majburiyatlarni qabul qilish va ijro etish.

Xarajatlarni to'lash tartiboti byudjet mablag'larini sarflashdan iborat bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oluvchi izchil amalga oshiriladigan harakatlarni o'zida namoyon etadi:

- xarajatlarni amalga oshirish uchun ruxsat;

- to'lovni amalga oshirish.

Bunda G'aznachilik tuzilgan to'lov va boshqa hujjatlarning o'rnatilgan talablarga asosan tasdiqlangan va ro'yxatga olingan byudjet muassasalari xarajatlari smetalariga mos kelishi tekshirilganidan so'ng byudjet mablag'larining sarflanishini amalga oshiradi. Shu bilan birga, bu ijroiya hokimiyati organlari va byudjet muassasalarining ularga xarajatlar smetasiga muvofiq ajratilgan mablag'lardan foydalanish masalalari bo'yicha mustaqilligini cheklamaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Rudoval I.P. Pravovoye regulirovaniye kaznacheyskogo ispolneniya byudjeta. - Finansi, №8, 2003, s.25.

2. Vaxrin P.I. Byudjetnaya sistema Rossiyskoy Federatsii. - M.: Izdatelsko - trgovaya korporatsiya «Dashkov i K», 2004, s. 311.
3. S.I.Gusev. Razvitiye federalnogo kaznacheystva v sisteme upravleniya gosudarstvennimi finansami. Avtoreferat na soiskaniye d.e.n. 2005.
4. Finansovo-kreditniy slovar. Pod redaktsiyey Garbuzova V.F. - M.: Finansi i statistika, 1984, t.2, s.27.
5. Byudjetnaya sistema Rossii / pod. redaktsiyey Polyaka G.B., s.127.
6. Baranova L.G. Vrublevskaya O.V. Byudjetniy protsess v RF. - M., 1998, s. 190.
7. Sovremenniy ekonomicheskiy slovar / Pod. red. Roltzberga B.A., Lozovskogo A.M., Starodubsevoy YE.B. - M: Sifra, 1998, s. 150.
8. T.SH. Eshnazarov, M.A. Mansurov. “Davlat g‘aznachiligining yagona g‘azna hisobvarag‘i va uni rivojlantirish istiqbollari”, “Iqtisod va moliya”-2013, 9-son